Moxidov Javlonbek O'tkirbek o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti "Siyosatshunoslik" yo'nalishi talabasi.

O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA (JST) A'ZO BO'LISHI: MILLIY SUVERENITET VA GLOBAL INTEGRATSIYA DILEMMASI

Anotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston respublikasining Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishi , uning milliy va xalqaro darajadagi ta'siri, milliy suverenitet va global integratsiya masalalarida tutadigan ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, Global siyosiy ishtirok va iqtisodiy o'sish masalalarida JSTga a'zo bo'lish O'zbekiston uchun qanday siyosiy va iqtisodiy afzalliklarni keltirib chiqarishi masalalari yoritiladi.Bu tashabbuslar O'zbekistonning multivektorli tashqi siyosatining muvaffaqiyati sifatida qaraladi, Osiyo davlatlari bilan yaqin aloqalarni saqlagan holda, Yevropa va AQSH bilan faol integratsiyani kuchayib borayotganligiga alohida e'tibor qaratiladi.Maqola nafaqat O'zbekiston, balki boshqa davlatlar uchun ham tashqi integratsiyani rivojlantirishdagi xalqaro hamkorlikni ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar : milliy suverenitet, global integratsiya dilemmasi, ichki iqtisodiyot, tashqi iqtisodiyot, xalqaro aloqalar, demokratik islohotlar, multivektoli tashqi siyosat, mintaqaviy aloqalar, geosiyosiy munosabatlar, investitsiyalar,eksport , import.

Аннотация: В данной статье анализируется вступление Республики Узбекистан во Всемирную торговую организацию, его влияние на национальном и международном уровнях, а также значение данного процесса в вопросах национального суверенитета и глобальной интеграции. Кроме того, рассматривается, какие политические и экономические преимущества может принести для Узбекистана членство в ВТО в контексте глобального политического участия и экономического роста. Эти инициативы рассматриваются как результат успешной многовекторной внешней политики Узбекистана, при сохранении тесных связей со странами Азии и одновременном усилении активной интеграции с Европой и США, на что обращается особое внимание. Статья демонстрирует значение международного сотрудничества в развитии внешней интеграции не только для Узбекистана, но и для других государств.

Ключевые слова: национальный суверенитет, дилемма глобальной интеграции, внутренняя экономика, внешняя экономика, международные отношения, демократические реформы, многовекторная внешняя политика, региональные связи, геополитические отношения, инвестиции, экспорт, импорт.

Anotation: This article analyzes the accession of the Republic of Uzbekistan to the World Trade Organization, its impact at the national and international levels, and its significance in matters of national sovereignty and global integration. It also examines what political and economic advantages WTO membership can bring to Uzbekistan in terms of global political participation and economic growth. These initiatives are considered as a success of Uzbekistan's multi-vector foreign policy, with particular attention paid to the strengthening of active integration with Europe and the United States while maintaining close relations with Asian countries. The article demonstrates the importance of international cooperation in developing external integration not only for Uzbekistan, but also for other states.

Key words: national sovereignty, global integration dilemma, domestic economy, foreign economy, international relations, democratic reforms, multi-vector foreign policy, regional relations, geopolitical relations, investments, export, import.

2026-yil O‘zbekiston uchun muhim tarixiy bosqich bo‘lishi kutilmoqda. Mamlakat Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) to‘laqonli a’zo bo‘lish jarayonini yakunlash arafasida turibdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 2017-yildan buyon amalga oshirilayotgan “Yangi O‘zbekiston” strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblangan ushbu jarayon bugungi kunda hal qiluvchi, yakuniy bosqichga yetib kelgan. O‘zbekiston tomoni 2026-yil mart oyida Kamerunda bo‘lib o‘tishi rejalashtirilgan JSTning 14-Vazirlar konferensiyasigacha barcha zarur majburiyatlarni bajarib, tashkilotga a’zolikni rasmiylashtirishni maqsad qilgan. Bunday o’zgarishni amalga oshirish esa milliy va xalqaro darajadagi ta’siri doirasida katta rol o’ynaydi va bu jarayon bir qancha iqtisodiy afzalliklarni keltirib chiqaradi . Shu bois, ushbu maqolada , mazkur jarayon O’zbekiston uchun qanday siyosiy va iqtisodiy afzalliklar beradi, yoki potensial xavflar bormi , shuningdek, har bir ehtimoliy o’zgarishning jamiyatdagi ta’siri chuqur tahlil qilinadi.

Jarayonning hozirgi holati va yutuqlari ; O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayoni 1994-yilda boshlangan bo‘lib, 2005-yildagi Andijon voqealaridan so‘ng muzokaralar ma’lum muddatga to‘xtab qolgan edi. Ushbu jarayon 2020-yilda qayta faollashtirilib, ayniqsa 2023-2025-yillar davomida sezilarli darajada jadallashdi.So‘nggi yillarda erishilgan asosiy yutuqlar quyidagilardan iborat. Avvalo, Rossiya, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Xitoy, Kanada, Ekvador va boshqa davlatlarni o‘z ichiga olgan jami 33 ta mamlakat bilan ikki tomonlama protokollar imzolandi[4]. 2025-yil dekabr oyida Sankt-Peterburg shahrida Rossiya Federatsiyasi bilan yakuniy protokol imzolanishi mazkur jarayonda muhim bosqich bo‘ldi. Shu bilan birga, bojxona tartib-taomillari, texnik reglamentlar, eksport bojlari hamda intellektual mulk huquqlarini himoya qilishga doir 29 ta yangi huquqiy hujjatni qabul qilish rejalashtirilgan.Bundan tashqari, milliy qonunchilikni JST bitimlari talablariga moslashtirish ishlari tizimli ravishda olib borilmoqda. Xususan, Soliq kodeksi, Bojxona kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.Mazkur yutuqlar O‘zbekistonning multivektorli tashqi siyosati samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Mamlakat Rossiya va Xitoy bilan strategik hamkorlikni saqlab qolgan holda, Yevropa Ittifoqi va AQSh bilan iqtisodiy hamda savdo aloqalarini chuqurlashtirib, global iqtisodiy tizimga integratsiyani izchil kuchaytirmoqda.

Rivojlanayotgan davlatlar tajribasi : O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lish istiqbollarini baholashda tashkilotga avvalroq qo‘shilgan rivojlanayotgan mamlakatlarning tajribasi muhim indikator bo‘lib xizmat qiladi. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, JSTga a’zolik “mo‘jizaviy dori” emas, balki iqtisodiy islohotlar uchun “katalizator” vazifasini o‘taydi.Xususan, Vyetnam tajribasi eng muvaffaqiyatli misollardan biri sifatida qaraladi: 2007-yilda tashkilotga kirganidan so‘ng, mamlakatga kirib kelayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi bir necha barobar ortdi va u global qiymat zanjirining ajralmas qismiga aylandi[1]. Investitsiya muhitining shaffoflashuvi Vyetnamni Janubi-Sharqiy Osiyoning texnologik xabiga aylantirdi.Markaziy Osiyo kontekstida esa natijalar turlichadir:

Qirg‘iziston - 1998-yilda Mintaqada birinchi bo‘lib a’zo bo‘lgan bu davlatda kutilgan keskin sakrash sodir bo‘lmadi. Buning asosiy sababi - iqtisodiyotning institutsional tayyor emasligi va qo‘shni davlatlar (JSTga a’zo bo‘lmagan o‘sha davrdagi Qozog‘iston va O‘zbekiston) bilan savdo to‘siqlarining saqlanib qolganidir. Bu "erta a’zolik" milliy ishlab chiqarishni himoya qilishda qiyinchiliklar tug‘dirgan bo‘lsa-da, mamlakatning xalqaro savdo huquqi tizimiga moslashishiga xizmat qildi.

Qozog‘iston - 2015-yilda 20 yillik murakkab muzokaralardan so‘ng a’zo bo‘lgan Qozog‘iston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, JST qoidalari milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga (SPS, TBT) muvofiqlashtirishda kuchli instrument bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, a’zolikdan so‘ng Qozog‘istonda xizmat ko‘rsatish sohasi liberallashdi va iste’mol bozorida raqobat muhiti yaxshilandi, bu esa uzoq muddatda yalpi ichki mahsulotning barqaror o‘sishiga (prognozlarga ko‘ra 17% gacha) zamin yaratadi.

Ushbu davlatlar tajribasi shuni tasdiqlaydiki, JSTga a’zolik milliy suverenitetni cheklamaydi, aksincha, davlatga global "o'yin qoidalari"ni shakllantirishda ishtirok etish va o'z manfaatlarini xalqaro arbitraj darajasida himoya qilish huquqini beradi. O‘zbekiston uchun asosiy xavf a’zo bo‘lishda emas, balki iqtisodiyotning diversifikatsiya qilinmasdan, proteksionizm soyasida qolib ketishidadir..O‘zbekistonning JSTga intilishi sharoitida milliy suverenitet va global integratsiya o‘rtasidagi dilemma o‘ziga xos geosiyosiy xarakter kasb etadi. Bir tomondan, JSTga a’zolik O‘zbekiston uchun "ko‘p vektorli tashqi siyosat"ning iqtisodiy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Bu qadam mamlakatga mintaqaviy va global kuch markazlari (Rossiya, Xitoy, AQSH, Yevropa Ittifoqi) bilan munosabatlarda muvozanatni saqlash imkonini beradi. Global savdo tizimiga integratsiyalashuv O‘zbekistonning iqtisodiy suverenitetini faqatgina cheklangan mintaqaviy bloklar (masalan, YeOII) doirasida qolib ketishdan himoya qiladi va tashqi savdoda "geosiyosiy qaramlik" xavfini kamaytiradi[2].Quyida mazkur faktorlarni batafsil ko’rib chiqsak:

Rossiya va YeOII faktori : Rossiya O‘zbekistonning eng yirik savdo hamkorlaridan biri bo‘lib qolmoqda (2025-yil yakunlariga ko‘ra ikki tomonlama muzokaralar muvaffaqiyatli yakunlandi). JSTga a’zolik O‘zbekiston uchun Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (YeOII) bilan munosabatlarda "manevr maydoni"ni kengaytiradi. JST qoidalari O‘zbekistonga har qanday mintaqaviy blok ichida o‘z iqtisodiy manfaatlarini global standartlar asosida himoya qilish va faqat bir yo‘nalishga bog‘lanib qolmaslik imkonini beradi.

Xitoy faktori: Pekin O‘zbekistonning JSTga kirishini faol qo‘llab-quvvatlaydi. Bu Xitoyning "Bir makon, bir yo‘l" tashabbusi doirasidagi transport-logistika loyihalarini xalqaro huquqiy maydonda qonuniylashtirishga xizmat qiladi. JSTga a’zolik Xitoy investitsiyalarining shaffofligini oshiradi va o‘zaro savdodagi tarif to‘siqlarini kamaytiradi[5].

AQSH va G‘arb davlatlari faktori : Vashington uchun O‘zbekistonning JSTga kirishi - mintaqaning global g‘arb iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi va "ochiq eshiklar" siyosatining ramzi hisoblanadi. AQSH bilan muzokaralarning yakunlanishi (2024-yil noyabr) O‘zbekistonning xalqaro bozorlardagi ishonchlilik reytingini oshirdi. Bu G‘arb texnologiyalari va sarmoyasining kirib kelishi uchun "yashil yo‘lak" vazifasini o‘taydi[3].

Biroq, bu jarayonda suverenitet masalasi o‘ta nozik nuqtadir. JST talablariga muvofiq milliy qonunchilikni liberallashtirish va bojxona-tarif siyosatini xalqaro standartlarga bo‘ysundirish, ayrim tahlilchilar nazdida, davlatning iqtisodiy dastaklarini cheklashdek ko‘rinishi mumkin. Lekin zamonaviy sharoitda suverenitet - bu izolyatsiya emas, balki xalqaro qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish qobiliyatidir. O‘zbekiston JSTga a’zo bo‘lish orqali jahon bozorida "o‘yin qoidalari"ni belgilashda ovoz berish huquqiga ega bo‘ladi, bu esa passiv kuzatuvchidan faol subyektga aylanish demakdir[7].Shu bilan birga, integratsiya dilemmasi ichki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik bilan ham bog‘liq. Global raqobatga tayyor bo‘lmagan milliy tarmoqlarni himoya qilish va ayni paytda ochiq bozor talablariga moslashish "oltin o‘rtaliq"ni topishni talab etadi. Shu ma’noda, JSTga a’zolik O‘zbekiston uchun nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy subyektlilikni mustahkamlash instrumenti bo‘lib, u mamlakatning jahon bozoridagi o‘rnini huquqiy jihatdan kafolatlaydi.

O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a’zo bo‘lish jarayoni shunchaki tashqi savdo siyosatining o‘zgarishi emas, balki mamlakatning zamonaviy dunyo iqtisodiy arxitekturasidagi o‘rnini qayta belgilovchi strategik transformatsiyadir. Tadqiqot davomida ko‘rib chiqilgan "milliy suverenitet va global integratsiya dilemmasi" shuni ko‘rsatadiki, bugungi globallashgan dunyoda mutlaq iqtisodiy izolyatsiya suverenitetni saqlash emas, balki rivojlanishdan ortda qolish va geosiyosiy zaiflikni anglatadi[8].O‘tkazilgan tahlillar asosida quyidagi fundamental xulosalarga kelindi:

Suverenitetning yangi talqini: JSTga a’zolik milliy suverenitetni cheklamaydi, aksincha, xalqaro savdo qoidalarini ishlab chiqishda ishtirok etish orqali uni kuchaytiradi. O‘zbekiston "o‘yin qoidalari"ni qabul qiluvchi passiv obyektdan, o‘z manfaatlarini xalqaro arbitraj darajasida himoya qiluvchi faol subyektga aylanadi.

Geosiyosiy muvozanat: Markaziy Osiyodagi gidrosiyosiy va iqtisodiy vaziyat fonida, JSTga a’zolik O‘zbekiston uchun yirik kuch markazlari (Xitoy, Rossiya, AQSH va YEIdan) bilan munosabatlarda "neytral va huquqiy" maydon vazifasini o‘taydi. Bu esa "ko‘p vektorli" tashqi siyosatning barqarorligini ta’minlaydi.

Tizimli islohotlar katalizatori: Integratsiya jarayoni milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, korrupsiyani kamaytirish va investitsiyaviy muhitni shaffoflashtirish uchun majburiy "yo‘l xaritasi" bo‘lib xizmat qiladi. Vyetnam va Qozog‘iston tajribasi shuni ko‘rsatdiki, qisqa muddatli moslashish qiyinchiliklariga qaramay, uzoq muddatli istiqbolda integratsiya iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveridir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning JSTga kirishi — bu iqtisodiy taraqqiyot va milliy xavfsizlik o‘rtasidagi muvozanatni topish sari tashlangan dadil qadamdir. Ushbu integratsiya "Yangi O‘zbekiston"ning nafaqat mintaqaviy yetakchi, balki global iqtisodiy tizimning mas’uliyatli va teng huquqli a’zosi sifatidagi maqomini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. World Trade Organization Official Reports: "Trade Policy Review of Vietnam ".WTO Secretariat.Geneva : WTO publications,2021.12-25 -betlar.

2. The World Bank: "Uzbekistan: Strengthening the Foundations for Private Sector-Led Growth" . Country Economic Memorandum,Washington,DC: World Bank Group, 2023.45-62-betlar.

3.Hoekman, B. & Kostecki, M.: "The Political Economy of the World Trading System" .Third edition.Oxford University Press,2009.104-135-betlar.

4.O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi: JST bilan muzokaralar jarayoni va milliy strategiya hisobotlari,2024.10-15-betlar.

5. Buzan, B., & Waever, O.: "Regions and Powers: The Structure of International Security", Cambridge University Press ,2003.391-420-betlar.

6.IMF Executive Board Reports : "Structural Reforms and Trade Integration in Central Asia", IMF Executive Board Report No 25/12,2025.22-38-betlar.

ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

7.World Bank Trade Watch : "Impact of WTO Membership on Diversification of Exports", Washington,DC,2025.8-14-betlar.

8.Asatullaev, X. : "O‘zbekistonning JSTga a’zoligi: Iqtisodiy xavfsizlik masalalari" , Toshkent, TDYU nashriyoti, 2026. 112-145- betlar.